



“O‘zbektelekom” AK qayd etilgan aloqa xizmatlari uchun pullik toifadagi raqamlar uchun tariflarga izohlar

1. Pullik toifadan raqam ajratish tartibi.

- Pullik toifadagi raqamlar shakli (qiyofasi)ning belgilari:
X, Y, Z – kod (hudud/operator) raqamlari va prefikslar;
A, B – 0 dan 9 gacha raqamlar;
AA, BB, 00, 77 – takrorlanuvchi raqamlar;
XY YYY YY YX – kod (hudud/operator) va prefiks bilan bog‘liq bo‘lgan raqamlash doirasiga ega shakl (qiyofasi) namunasi.

1.1. Pullik raqam bir nechta shakllar (qiyofalar) bilan to‘g‘ri kelgan hollarda, narx eng qimmat shablona (ushbu izoh 6666, 0666, 6660, 666A, A666 ko‘rinishidagi raqamlar uchun qo‘llanilmaydi) muvofiq belgilanadi.

1.2. Ushbu tarif va qiyofa doirasi quyidagi xizmatlarni taqdim etish uchun raqamlarni ajratishda qo‘llaniladi:

1.3. TDM va IP telefoniya texnologiyalari bo‘yicha taqdim etiladigan qayd qilingan telefon aloqa xizmatlari;

1.4. - Call markazning intellektual xizmatlari: “Virtual ofis”, “Tele-ovoz berish”, “Qo‘shimcha tarif” va intellektual raqamlarni ajratishdagi boshqa xizmatlar;

1.5. - 0 800 kodli raqamlar uchun “Bepul chaqiruv” xizmati;

1.6. - Umumiy foydalanishdagi tarmoqqa chiqish huquqiga ega tarmoqqa ulangan abonentning idoraviy tarmoqdan foydalanishi uchun “O‘zbektelekom” AK qamrovidagi raqamlarni taqdim etishda.

1.7. Yangi ulanganda pullik toifadagi raqam ajratilgani uchun to‘lov olinadi, shuningdek raqam ajratilgan xizmat turiga qarab telefon tarmog‘iga ulanish uchun ro‘yxatga olish to‘lovi olinadi, 125-1/1, 125-1/7-son narxnomalarda ko‘zda tutilgan bir intellektual raqamdan, 0 800 kodli raqamdan va boshqalardan foydalanish huquqini berish.

1.8. Kompaniya o‘tkazilayotgan aksiyalarning shartlariga muvofiq pullik raqamlar narxini o‘zgartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

1.9. Kompaniya raqamlarning ma‘lum toifalarini ochiq raqamlash doirasida zahiralash va kim-oshdi savdolari asosida ularni sotish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Bunday hollarda, yakuniy narx esa kim-oshdi savdolari yakunlariga ko‘ra belgilanadi.

2. Pullik toifadagi raqamlarni almashtirish.

2.1. Oddiy (pullik toifaga kirmaydigan) yoki pullik raqamni pullik toifadagi raqamga almashtirilganda, raqamni 125-1/7-son narxnoma tarifi bo‘yicha (III bo‘lim “Shahar va qishloq telefon aloqalari xizmatlari uchun tariflar”, 25-moddasiga muvofiq) almashtirish uchun, shuningdek toifadan pullik raqam ajratilgani uchun to‘liq narx bo‘yicha to‘lov olinadi.

2.2. “O‘zbektelekom” AKning tashabbusi bilan telekommunikatsiya tarmog‘idagi raqamlar hajmini optimallashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar munosabati bilan, pullik toifadagi ajratilgan raqam almashtirilganda, abonent tomonidan avval foydalanilgan raqamning o‘xshash toifasi bo‘yicha texnik imkoniyatdan kelib chiqqan holda raqam ajratilishi bilan almashtirish bepul amalga oshiriladi.

3. Pullik toifadagi raqamlarni ko'chirib o'tkazish.

3.1. Pullik toifadagi raqamni turli binolarga ko'chirib o'tkazish ("O'zbektelekom" AK hududiy filialining xizmat ko'rsatish zonasidan tashqarida) 125-1/7-son narxnomaning III bo'lim "Shahar va qishloq telefon aloqalari xizmatlari uchun tariflar", 21-moddasiga muvofiq telefonlashtirilmagan xonada aloqani tashkil etishda foydalanish uchun olinadigan to'lov qiymatining 40 % miqdorida to'lov undiriladi. Telefon raqamni ko'chirib o'tkazish texnik imkoniyat mavjud bo'lganda, shuningdek yangi o'rnatish manzili bo'yicha EATS xizmat ko'rsatish zonasiga va birlashtirilgan raqamlar doirasiga kirish sharti bilan amalga oshiriladi.

4. Pullik toifadagi raqamlarni qayta rasmiylashtirish.

4.1. *Doimiy yoki vaqtincha ro'yxatda turgan jismoniy shaxslar yoki abonent bilan yashash maydoniga teng ravishda egalik huquqiga ega bo'lgan shaxslar uchun pullik toifadagi raqamni qayta rasmiylashtirish.*

4.2. Abonent ko'chib ketgan holda abonent ko'chib ketguncha uning yashash joyi bo'yicha belgilangan tartibda doimiy yoki vaqtincha ro'yxatda turadigan (turar joyi bo'yicha hisobda turadigan) yoki turar joyga abonent bilan teng egalik huquqiga ega bo'lgan abonentlar Shartnomani qayta rasmiylashtirish huquqiga egadirlar. To'lov 125-1/7-son narxnomaning III bo'lim "Shahar va qishloq telefon aloqalari xizmatlari uchun tariflar", 26-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.3. *Vorislik huquqi bilan qayta tashkil qilingan (qo'shilgan, birlashtirilgan, ajratilgan, o'zgartirilgan) hollarda pullik toifadagi raqamni yuridik shaxsga qayta rasmiylashtirish.*

4.4. Yuridik shaxs bilan Shartnomani qayta rasmiylashtirish yuridik shaxsning nomi va/yoki rekvizitlari o'zgargan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vorislik huquqi bilan qayta tashkil qilingan (qo'shilgan, birlashtirilgan, ajratilgan, o'zgartirilgan) hollarda, shuningdek bank yoki yuridik shaxs o'zining tashabbusi bilan bank va boshqa rekvizitlari o'zgargan holda amalga oshiriladi. To'lov 125-1/7-son narxnomaning III bo'lim "Shahar va qishloq telefon aloqalari xizmatlari uchun tariflar", 26-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.5. *Pullik toifadagi raqamni taqdim etish uchun shartnoma bo'yicha abonent ma'lumotlarini o'zgartirish.*

4.6. Jismoniy shaxslar uchun shartnoma bo'yicha abonent ma'lumotlarini o'zgartirish uchun F.I.Sh. va pasport ma'lumotlari o'zgartirilganda to'lov olinmaydi.

4.7. Yuridik shaxslar uchun shartnoma bo'yicha abonent ma'lumotlarini o'zgartirish uchun tashkilot nomi (STIR o'zgarmagan hollarda), bog'lanish uchun ma'lumotlar (telefon, faks, elektron pochta), OKED, bank rekvizitlari, F.I.Sh. va rahbar lavozimi, hisobni yetkazish manzili o'zgartirilganda to'lov olinmaydi.

4.8. *Telefonlashtirilgan xonaga ko'chib kiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar arizachilar uchun oldi-sotdi jarayonida pullik raqamni qayta rasmiylashtirish.*

4.9. "O'zbektelekom" AKning umumiy foydalanishdagi telefon tarmog'ining avval abonent bo'lmagan arizachilar uchun to'lov 125-1/1-son narxnomaning 1-bo'lim, 3-quyi bo'lim, 2-modda, 1-pozitsiyasiga muvofiq amalga oshiriladi.

4.10. "O'zbektelekom" AKning umumiy foydalanishdagi telefon tarmog'ining avvalgi abonentlari bo'lgan arizachilar uchun, tegishli ma'lumotnoma taqdim etilgan hollarda, mahalliy yoki idoraviy tarmoqning avval abonent bo'lgan raqamlari doirasidagi har bir telefon uchun foydalanish imkonini taqdim etishga 20% miqdorida to'lov olinadi (125-1/1-son narxnomaning 1-bo'lim, 3-quyi bo'lim, 5-moddaga muvofiq). Ushbu miqdordan oshgan har bir telefon uchun foydalanish to'lovining 100% miqdorida to'lov amalga oshiriladi.

4.11. Telefonlashtirilgan binoning oldi-sotdi hollarida pullik toifadagi raqamni qayta rasmiylashtirishda quyidagi miqdorda to'lovlar olinadi:

4.12. - yuridik shaxslardan, pullik toifadagi raqam narxidan 100 % miqdorida;

4.13. - diniy tashkilotlardan, pullik toifadagi raqam narxidan 20 % miqdorida;

4.14. - yuridik shaxs tashkil etmagan subyektlardan, pullik toifadagi raqam narxidan 20 % miqdorida;

4.15. - jismoniy shaxslardan, pullik toifadagi raqam narxidan 20 % miqdorida;

4.16. ***Telefonlashtirilgan xonani ijaraga berishda pullik toifadagi raqamni qayta rasmiylashtirish.***

4.17. Yuridik shaxs yoki jismoniy shaxs telefonlashtirilgan xonani ijaraga berish hollarida, bir oy ichida ijaraga beruvchi bilan Shartnoma bekor qilinadi va ijaraga oluvchi bilan har bir abonent raqamidan foydalanish imkoni uchun 125-1/1-son narxnomaning 1-bo'lim, 3-quyi bo'lim, 2-moddasi, 1-pozitsiyasiga muvofiq so'nggi to'lov amalga oshirilishi bilan Shartnoma tuziladi.

4.18. To'lov pullik raqamni taqdim etilgani uchun toifasi bo'yicha narxning 20 % miqdorida to'lov undiriladi.

4.19. Ijara muddati tugaganda yoki ijara shartnomasi bekor qilinganda, 4.5.1, 4.5.2 bandlarda ko'zda tutilgan to'lovlarni to'lamagan holda ijarachidan ijaraga beruvchining nomiga Shartnoma qayta rasmiylashtiriladi.

4.20. ***Turar-joy binolarini noturarga o'tkazishda pullik toifadagi raqamni qayta rasmiylashtirish.***

4.21. Turar-joy binolarini noturarga o'tkazishda jismoniy shaxs sifatida abonent bilan shartnoma bekor qilinadi va ushbu manzil bo'yicha ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs bilan shartnoma tuziladi, bunda o'z-o'zini moliyalashtirish tashkilotlari uchun telefon tarmog'idan foydalanish imkoni taqdim etilgani uchun tariflar bo'yicha 100 % miqdorida to'lov, xuddi shu manzil bo'yicha ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs bo'lmagan xususiy tadbirkorlardan aholi uchun telefon tarmog'idan foydalanish imkoni taqdim etilgani uchun tariflar bo'yicha 20 % miqdorida to'lov olinadi.

4.22. Agar noturar-joyni turar-joy binolariga o'tkazish holatda, yuridik shaxs yoki yuridik shaxsni tashkil qilmagan xususiy tadbirkor abonentlar bilan shartnoma bekor qilinadi va avval shu manzil bo'yicha abonent bo'lgan jismoniy shaxs bilan shartnoma tuziladi hamda aholi uchun telefon tarmog'idan foydalanish imkoni taqdim etilgani uchun tariflar bo'yicha 20 % miqdorida to'lov olinadi.

4.23. Turar-joy binolarini noturarga o'tkazishda va aksincha, noturardan turar-joy binosiga o'tkazishda pullik raqamni toifasi bo'yicha taqdim etilganligi uchun 20 % miqdorida to'lov olinadi.

5. Shartnoma bekor qilinganda va raqam olib qo'yilganda pullik toifadagi raqamni tiklash.

5.1. Avval telekommunikatsiya tarmog'ining abonent bo'lgan, to'lov to'lamaganligi uchun yoki ko'chib ketgan hollarda Shartnoma bekor qilinishi natijasida abonent bo'lishni to'xtatgan shaxslar, 12 oy ichida pullik toifadagi raqam uchun to'lovni to'lamagan holda, avval foydalangan pullik toifadagi raqamni tiklash uchun shartnoma tuzish huquqiga egadirlar. Bunda avvalgi manzil bo'yicha, avval ishlatilgan pullik toifadagi raqam boshqa abonentga berib yuborilmagan va texnik imkoniyat mavjud bo'lgan hollardagina raqam qayta tiklanadi. Shartnoma bekor qilingan vaqtdan 12 oy o'tgach, va abonent tomonidan avval ishlatilgan pullik toifadagi raqam tiklangan hollarda, pullik toifadagi raqam uchun to'lov toifaga muvofiq to'liq amalga oshiriladi.

5.2. Pullik toifadagi raqamni tiklashda, shuningdek telefonlashtirilgan xonaga foydalanish imkoni taqdim etilgani uchun to'lov 125-1/1-son narxnomaning 1-bo'limi, 3-quyi bo'limi, 2-modda, 1-pozitsiyaga ko'ra amalga oshiriladi.